

O'ZBEKISTONDA MILLIY SUN'iy INTELLEKT ETIKASI KENGASHINI TASHKIL ETISH

Suyunov Islom Bahriiddin o'g'li

Jizzax viloyati Zomin tuman 1-sonli politexnikumi

Tarix fani o'qituvchisi.

nodiraobidova@inbox.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14812500>

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellect tushunchasi va tarixiga alohida ahamiyat berilgan. Sun'iy intellektning insoniyat hayotiga qanday ta'sir qilishi soha mutaxasislari fikri bilan atroflicha muhokama qilingan. Shuningdek, hozirda eng muhim muommolardan bir bo'l mish suniy intellektda xavfsizlik va javobgarlik masalasi ham to'liq yoritib berilgan. Sun'iy intellektda etika muommolariga alohida to'xtalib etika kengashi tashkil etishi bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, sun'iy intellekt, ilmiy kashfiyotlar, etika, axloq-odob tamoyillari, sun'iy intellekt etikasi, BIMT.

ESTABLISHING A NATIONAL COUNCIL ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE ETHICS IN UZBEKISTAN

Abstract. In this article, special importance is given to the concept and history of artificial intelligence. The impact of artificial intelligence on human life was discussed in detail with the opinions of industry experts. Also, one of the most important issues at the moment - safety and responsibility in artificial intelligence - is fully covered. Proposals for the establishment of an ethics council were made, focusing on the issues of ethics in artificial intelligence.

Key words: technology, artificial intelligence, scientific discoveries, ethics, ethical principles, ethics of artificial intelligence, WIPO.

СОЗДАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СОВЕТА ПО ЭТИКЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. Данная статья посвящена концепции и истории искусственного интеллекта. Влияние искусственного интеллекта на жизнь человека было подробно рассмотрено с учетом мнений экспертов отрасли. Также полностью освещен один из важнейших вопросов на данный момент – безопасность и ответственность в области искусственного интеллекта. Было обращено внимание на вопросы этики в сфере искусственного интеллекта, высказаны предложения о создании совета по этике.

Ключевые слова: технологии, искусственный интеллект, научные открытия, этика, этические принципы, этика искусственного интеллекта, ВОИС.

Kirish

Texnologiya asrida texnologiyasi faoliyat yurituvchi mutaxassisiss yoki texnologiklashmagan soha qolmagan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Texnologiya asrida ko'plab ilmiy kashfiyotlar insoniyatni lol qoldiradigan darajadan ham yuqori. Insoniyat ya'ni tabiiy intellektga taqlid qilib yaratilgan texnologiya bu sun'iy intellektdir. Bugungi kunga kelib sun'iy intellekt shu darajaga yetdiki, insonlar bu texnologiyaga o'zlarini ishonib topshirishmoqda. Misol qilib, sun'iy intellekt orqali boshqariladigan avtomobilarni aytishimiz mumkin. Insonlar o'z hayotini o'z qo'llari bilan yaratilgan texnikaga ishonishmoqda. Shu o'rinda savol tug'iladi. Sun'iy intellekt bu ishonchni qay darajada oqlamoqda? O'zi ishonishimizga arziydimi? Sun'iy intellektdan egri yo'lida foydalanish insoniyat uchun qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin? Sun'iy intellektda etika qay daraja shakllangan?

Yuqoridagi savolga ushbu maqola orqali javob topishingiz mumkin. Avvalo sun'iy intellekt haqida to'xtalib o'tamiz.

Sun'iy intellekt o'zi nima?

Sun'iy intellekt qachon yaratilgan?

Undan qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?

Uning ijobiy va salbiy tomonlari nimalardan iborat?

Sun'iy intellekt - deganda insonning mantiqiy va ijodiy funksiyalarini bajaruvchi intellektual sun'iy tizim tushuniladi. Ushbu atama, shuningdek, o'rganish va muammolarni hal qilish kabi inson aqli bilan bog'liq xususiyatlarni namoyish etadigan har qanday texnologiyaga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Sun'iy intellektning ideal xususiyati - bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo'lgan harakatlarni baholay olish va amalga oshirish qobiliyatidir.¹ Hozirga qadar yaratilgan sun'iy intellektlarning insondan farqi shuki, ularda fikrlash va his-tuyg'u mavjud emas. Insonga taqlid qilib, inson qo'li bilan yaratilgan ma'lum bir funksiyalarga mo'ljallangan va chegaralangan imkoniyatlarga ega bo'lgan texnologiyalar bu sun'iy intellektdir.

Metodologiya

Mazkur maqolani yozishda sun'iy intellektning tarixi va rivojlanish bosqichlari tarixiy tahlil qilish usuli yordamida adabiyotlar va ilmiy maqolalar yordamida o'rganildi. Xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Natijalar

¹ Pardayeva, D., Niyazov, F., & Xushboqov, I. (2023). Sun'iy intellekt tarixi, rivojlanish bosqichlari hamda insonlar hayotidagi o'rni. *Ekonomika i sotsium*, 3(106)-2.

Sun'iy intellekt bundan taxminan 1 asr ilgari XX asrda yaratilgan. Bu vaqtida N.Viner (1894-1964) yangi fan kibernetika bo'yicha o'zining asosiy ishlarini yaratadi. Sun'iy intellekt atamasi 1956 Stenford universiteti (AQSh) dagi xuddi shunday nomdagi seminarda taklif qilingan.

Seminar hisoblash emas, balki mantiqiy vazifalarni ishlab chiqishga mo'ljallangan.

Sun'iy intellektni fanning mustaqil sohasi deb tan olingandan keyin tezda uni ikkkita asosiy yo'nalishlarga: neyrokibernetika va "qora quti" kibernetikasiga bo'linishi sodir bo'lган.

Va faqat hozirgi vaqtida bu qismlarni yana bitta butuncha birlashishining tendensiyasi sezilmoxda². Sun'iy intellektni amaliy qo'llashda katta ilgariga surilish 70-yillarning o'rtalarida ro'y berdi, bu vaqtida inson tafakkurining universal algoritmini qidirish o'miga mutaxassislar-ekspertlarning aniq bilimlarini modellashtirish va bilim eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan dasturiy vositalar va tizimlarni ishlab chiqish g'oyasi kelgan. 70-yillarda sun'iy intellekt sohasidagi mutaxassislar vazifalarni yechishning umumiy usullari va bu usullardan universal dasturlarda foydalanishni qidirib, inson tafakkurining murakkab jarayonini modellashtirishga harakat qilganlar. Ammo bunday dasturlarni ishlab chiqish judayam qiyin ish bo'lган, chunki bitta dastur yecha olishi mumkin bo'lgan vazifalar sinfi qanchalik keng bo'lsa, aniq vazifani yechishda uning imkoniyatlari shunchalik kattaroq bo'lган. 80-yillarda dasturchilarining harakatlari axborotlarni taqdim etish va qidirish usullarini ishlab chiqishga jalb qilingan.

Axborotlarni taqdim etish usullari - bu muammolar va vazifalarni uni yechish mumkin bo'lishi uchun shakllantirish usullaridir. Qidirish usullari esa - bu judayam katta hajmda xotira va vaqt talab qilmaslik uchun yechimni borishini boshqarishning ajoyib usulidir. 80-yillarning ohirida sun'iy intellekt bo'yicha mutaxassislar vazifalarni yechishda dasturlarning samaradorligi ko'proq ular egalik qiladigan bilimlarga bog'liqligini tushunib yetadilar. 90-yillarni boshlarida butunlay yangi konsepsiya qabul qilingan. Uni mohiyati shundan iboratki, dasturni intellektli qilish uchun uni ba'zi bir predmetli sohadagi yo'agina yuqori sifatli maxsus bilimlar bilan ta'minlash kerak.

Shunday qilib, ishlab chiqilayotgan sun'iy intellekt tizimlari bilimlarning yaxshi rivojlangan bazasiga ega bo'lishi kerak. Hozirgi vaqtida bu konsepsiya ekspert tizimlarini loyihalashtirishda to'liqroq rivojlangan.³ "Butunjahon intellektual mulk tashkilotining 2019-yildagi texnologiya tendensiyalari - Sun'iy intellect" yig'ilishida nazariyadan amaliy qo'llanishga o'tayotgan sun'iy intellekt bilan bog'liq ixtiolar namoyish etildi. Bu tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasasi bo'lib, a'zo davlatlar uchun intellektual mulk, sun'iy intellekt, siyosat, axborot va hamkorlik xizmatlari bo'yicha global forum hisoblanadi.

² Yusupbekov, N. R. (2015). *Boshqarishning intellektual tizimlari va qaror qabul qilish*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.

³ Nazarov, X. N. (2019). *Robotlar va robototexnik tizimlar: Darslik*. Toshkent: MASHHUR PRESS..

Forumda Sun'iy intellekt sohasidagi o'zgarishlarni tezlashtirishga yordam bergan bir qator omillar mavjudligi aytib o'tildi. Uchrashuvda BIMT Bosh direktori Frencis Garri "Sun'iy intellekt hayot tarzimiz va ishimizni o'zgartirish orqali dunyoga chuqur ta'sir ko'rsatadigan yangi raqamli chegaradir" deya ta'kidlab, BIMT muvozanatli va samarali xalqaro intellektual mulk tizimini rivojlantirishga rahbarlik qilishini va barchaning manfaati uchun innovatsiyalar va ijodkorlikni qo'llab-quvvatlashini e'lon qildi.

Sun'iy intellektdan turli maqsadlarda foydalanishimiz mumkin. Quyida SI texnologiyalaridan foydalanishning ba'zi asosiy yo'nalishlari keltirilgan: Birinchi o'rinda bu - ma'lumotlarni tahlil qilishdir. SI yordamida katta ma'lumotlarni (big data) tez va samarali tahlil qilish mumkin. Bu biznesda, ilmiy tadqiqatlarda va sog'liqni saqlashda muhim qarorlar qabul qilish uchun zarur. Ikkinchisi - mashinali o'rganish - SI funksiyalari yordamida mashinalar o'z tajribasidan o'rganib, takomillashishi mumkin. Ya'ni o'zini-o'zi yangilab borishi. Bu masalan, tavsiyalar berish, xarid qilish odatlarini tushunish yoki xatolarni oldini olishda ishlatiladi.

Uchinchisi - Avtonom transportlar. Sun'iy intellekt yordamida avtonom avtomobillar va dronlar yaratilmoqda, bu transport tizimlarini xavfsiz va samarali qilishga yordam beradi.

To'rtinchi - soha bu sog'liqni saqlash. SI tibbiyotda kasalliklarni aniqlash, tashxis qo'yish, yangicha davolash usullarini taklif qilish va bemorlar monitoringi uchun qo'llaniladi.

Masalan, tahlil qilishda va tasvirlarni o'qishda (masalan, rentgen, MRT) samarali texnologiyadir.

Beshinchisi - Moliyaviy xizmatlar sohasida, SI yordamida moliya sohasida risklarni baholash, investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish va firibgarliklarni aniqlashda ishlatiladi.

Oltinchisi - Ijtimoiy media va marketing - SI algoritmlari yordamida foydalanuvchilarining qiziqishlarini tushunish va shaxsiylashtirilgan reklama va reeslar yaratish uchun ishlatiladi.

Yettinchisi - Qurilish va ishlab chiqarish - SI robot texnikasi va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish va optimallashtirish mumkin.

Qurilish va ishlab chiqarishdagi og'ir va sifatsiz qo'l mehnatini avtomatlashtirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Sakkizinchi soha bu ta'limdir. Sun'iy intellekt ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish, talabalarni kuzatish va ularning bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun foydalidir. Shuningdek Sun'iy intellektdan ustoz sifatida foydalanish mumkin va onlayn ta'lim platformalari talabalar uchun mos o'quv materiallarini taklif etishi mumkin.

To'qqizinchisi - SI qishloq xo'jaligida ekinlarni monitoring qilish, zararkunandalarga qarshi kurashish va hosildorlikni oshirishda qo'llaniladi. Buning natijasida qishloq xo'jaligi sohasi ham yuqori natijalarga erishadi. O'ninchi soha sifatida yuridik xizmat ko'rsatishni aytish mumkin.

Yuridik sohada sun'iy intellekt yordamida juda ko'plab ishlarni amalga oshirish mumkin.

Misol uchun, bepul yuridik yordam platformalarini yaratish, hujjatlarni rasmiylashtirish, nizolarni hal etish, qonunlarni tahlil qilish va shu bilan birga sud tizimida ham ko‘plab davlatlar huquqbuzarlarga nisbatan jazo tayinlashda sun’iy intellektdan bevosita foydalanib kelishmoqda.

Har bir sohada SI texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlari davom etmoqda va yangi innovatsiyalarni keltirib chiqarishda davom etadi.

Muhokama

Tanganing ham ikki tomoni bo‘lgani kabi sun’iy intellektida ham shuncha afzalliklari mavjud bo‘lganiga qaramay salbiy tomonlari ham mavjud. Sun’iy intellekt haqidagi bahsmunozalar qariyib 50 yillardan buyon davom etib kelmoqda. Mutaxassislar hanuzgacha aniq bir to‘xtamga kelishgani yo‘q. Ba’zilar uni ommalashib odamlarning o‘rnini egallashi natijasida, odamlar orasida ishsizlikning kengayib borishini o‘ylashmoqda. Mutaxassislarning boshqa bir guruhi sun’iy intellektga ijobiy munosabatda bo‘lish kerakligini uqtirishmoqda.

SpaceX asoschisi Ilon Mask sun’iy intellektning butun boshli svilizatsiyani barbos qilishiga ishonchi komil. Maskning fikricha, "*Sun’iy intellekt insoniyat sivilizatsiyasi uchun asosiy xavfdir. Sun’iy intellekt mehnat bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi. Sababi, robotlar hamma ishni bizdan ko‘ra yaxshiroq bajarishadi. Ilg‘or texnologiyalar ortidan quvish natijasida, kompaniyalar sun’iy intellekt ortidan kelib chiqadigan xavf-xatarni ko‘rmay qolishlari mumkin*"⁴.

Shuningdek Microsoft rahbari Bill Geyts ham uning zarari haqida to‘xtalib o‘tadi. “*Bir necha 10 yildan so‘ng, robotlar ishning katta qismini bajara boshlagach, sun’iy intellekt shu qadar kuchayib ketadiki, yakunda u bizni havotirga sola boshlaydi, bu borada Elon Maskning fikriga qo‘shilaman. Ammo nega bu savol boshqalarni tashvishlantirmayotganiga hech tushuna olmayman.*”- deydi Bill Geyts. “Boshqalar” deganda Bill Geyts Facebook egasi - Mark Sukerbergni nazarda tutgan bo‘lsa ajab emas. Chunki, Mark Sukerberg sun’iy intellektga nisbatan ijobiy munosabatda ekanligini bildirar ekan: *Yangi texnologiyalar har doim ham yaxshilik yoki yomonlik qilish maqsadida yaratilishi mumkin. Sun’iy intellektning keng tarqalishi ortidan keladigan ijobiy natijani esa yaqin 5-10 yil ichida ko‘ramiz*”, deya Elon Maskning fikriga e’tiroz bildirgan edi. Aslida o‘zi sun’iy intellekt qanday salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini sanab o‘tiladi. Quyida sun’iy intellektning odamlar uchun ba’zi salbiy tomonlari keltirilgan:

1. Ish o‘rnlari yo‘qolishi - Suniy intellekt va avtomatlashtirish tufayli ko‘plab kasblar va an‘anaviy ish o‘rnlari yo‘qolishi aniq. Ayniqsa, zavod ishchilari, xizmat ko‘rsatish sohasidagi xodimlar va transport haydovchilari kabi ko‘plab kasblar avtomatlashtirilishi ehtimoli yuqori.

⁴ Kurfess, T. (2005). *Robotics and automation handbook*. CRC Press LLC.

Sun'iy intellekt natijasida yo'qolish mumkin bo'lgan kasb egalaridan birinchi o'rinda haydovchilar turadi, keyin advokat va buxgalterlar, har xil ofislardagi xizmat ko'rsatuvchi receptionlar.

2. Xavfsizlik va nazorat - SI noto'g'ri qo'llanilganda yoki noto'g'ri ma'lumotlar asosida ishlaganda xavfsizlikka tahdid solishi mumkin. Masalan, yuzni tanib olish texnologiyasi noto'g'ri ishlatsa yoki suiiste'mol qilinsa, inson huquqlari buzilishi xavfi mavjud.

3. Ma'lumotlarni suiiste'mol qilish - SI texnologiyasi ko'p miqdordagi shaxsiy ma'lumotlarni tahlil qiladi. Ushbu ma'lumotlar noto'g'ri qo'llanilsa yoki noto'g'ri qo'llarga tushib qolsa, insonlarning shaxsiy hayoti buzilishi xavfi bor. Shaxsga doir ma'lumotlar sir saqlanish funksiyasi yaxshi takomillashmaganligi uning eng asosiy kamchiligidir. Shu sababli, hali hamon ko'pchilik insonlar 100% sun'iy intellektga ishonib o'z ma'lumotlarini taqdim etishmaydi.

4. Nazorat va manipulyatsiya - SI texnologiyasi odamlarning fikrlarini o'zgartirish yoki ularni manipulyatsiya qilish uchun ishlatalishi mumkin. Masalan, SI yordamida noto'g'ri yoki soxtalashtirilgan ma'lumotlar tarqatilishi mumkin, bu esa jamiyatdagi haqiqat va ishonchni buzadi. Insonlar sun'iy intellektga ishonib qolib, unga bo'ysunish darajasiga ham yetib, o'z shaxsiy hayoti uchun ham undan qaror qabul qilishini so'rashlari ham uchrab turibdi. Qarorni so'rashgina emas, u qanday topshiriq bersa amalga oshirib o'z joniga qasd qilganlar ham yo'q emas.

5. Etika va mas'uliyat - SI asosida qabul qilingan qarorlarning mas'uliyati kimga yuklanishi kerakligi javobgarlik masalasi hali ham noaniq. Agar SI xatolikka yo'l qo'ysa yoki noto'g'ri qaror qabul qilsa, kim javobgarlikni o'z zimmasiga olishi kerakligi masalasi ko'plab etika muammolarini keltirib chiqaradi. Sun'iy intellektdan biron masalada maslahat so'rashimiz mumkin va u bergen maslahat etika va axloq-odob qoidalariga, bizning milliyligimizga mos kelish yoki kelmasligi ham aniq emas. Agar sun'iy intellect jinoyat sodir etishga undasa, yoki bevosita o'zi ishtirik etsa, javobgarlik masalasi qanday bo'ladi. Misol uchun; sun'iy intellekt boshqaruvidagi mashina odam urib yubordi. Ichida mashinani egasi ham bor lekin mashinani sun'iy intellekt boshqarib ketayotgan edi. Xo'sh bu yerda kim javobgar bo'ladi. Mashinani ishlab chiqargan zavodmi? Yoki sotib olgan shaxsmi?

Mashinami? O'zbekiston jinoyat qonunchiligi bo'yicha yuridik shaxs va mashina jinoyat subyekti bo'la olmaydi. Shu kabi holatlar yuz berganda, kim javobgarligi masalasi hamon hal etilmay, huquqiy tartibga solinmay kelmoqda.

6. Odamlar orasidagi tengsizlikning kuchayishi - SI texnologiyasiga ega kompaniyalar va davlatlar boshqalardan ko'ra ko'proq resurs va imkoniyatlarga ega bo'lishadi. Bu esa jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy tengsizliklarni yanada kuchaytirishi mumkin. Oddiy misol bilan aytadigan bo'lsak, sun'iy intellektdan foydalanib xizmat ko'rsatuvchi advokatlik yokida boshqa xizmatlarni amalga oshiruvchi korxonalar inson faktori bilan xizmat ko'rsatuvchi korxonaga qaraganda,

anchagini tez va samaraliroq xizmat ko'rsatadi. Bu o'z-o'zidan boylar boyib, kambag'al va o'z ustida ishlamaydigan, texnologiya va texnologik bilimga ega bo'limganlarning yanada qashshoqlashuviga olib keladi. Bu salbiy jihatlar sun'iy intellektning ehtiyojkorlik bilan ishlab chiqilishi va nazorat qilinishini talab qiladi.

Sun'iy intellektni ijobiy va salbiy tomonlari qaysi ustunroq ekanligi yuzasidan bahsmunozaralar hali uzoq davom etadi. Robotlarni yaratishda insoniyatga xavf tug'dirmaslik yo'llarini o'ylab qo'yish ham zarar emas. Sun'iy intellekt etikasi nima? Sun'iy intellektga etika o'zi nega kerak? Sun'iy intellekt etikasi bu – sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish, qo'llash va ulardan foydalanishda axloqiy tamoyillar va mas'uliyatni belgilovchi qoidalar to'plamidir. Endi aniqlab olamiz o'zi sun'iy intellektga etika kerakmi? Ha, albatta.

Aniq ayta olamanki, Sun'iy intellektga etika juda zarur. Sababi hozirda sun'iy intellekt inson hayotining barcha sohalariga kirib borgani uchun ham jamiyatga ijobiy va xavfsiz ta'sirini ta'minlash uchun axloqiy tamoyillarga asoslangan bo'lishi kerak. Bu axloq tamoyillari; xavfsizlikni ta'minlash va ishonchli bo'lish bu asosan shaxsiy ma'lumotlarga oid,adolat va tenglikni saqlash, nazorat va javobgarlik, qarorlar shaffofligini ta'minlash, inson huquqlarini hurmat qilish va insonparvarlik tamoyillarini aytishimiz mumkin. Bu tamoyillar sun'iy intellekt texnologiyasini insonlar uchun ko'proq ishonchli va mas'uliyatlari qiladi. O'zbekistonda ham sun'iy intellektni har tomonlama rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Misol qilib, 2023-yilning 7-iyul kuni Raqamli texnologiyalar vazirligi tashabbusi bilan tashkil etilgan.

"Digital Leadership Forumi" doirasida Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutining "Sun'iy intellekt sohasidagi etika va tartibga solish masalalari" mavzusida xorijlik mutaxassislar ishtirokida panel diskussiyasi bo'lib o'tganini aytishimiz mumkin.

Ushbu tadborda xorijlik hamkor tashkilotlardan Koreaning "Korea Industry Intelligentization Association" hamda "Chungbuk National University", Xitoyning "NUWA Robotics", Hindistonning "Bikal Technologies" va "Amity" universiteti, shuningdek, VEON Group kompaniyasidan soha mutaxassislari va talaba-yoshlar hamda OAV xodimlari faol ishtirok etdi. Mazkur anjumanni tashkil qilishdan maqsad – bugungi kunda mamlakatimizda turli soha tarmoqlarini rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali texnologik rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish. Shuningdek, ushu tizimni joriy etishda uning ijobiy va salbiy oqibatlarini tahlil qilish va etika qoidalarini ishlab chiqishga doir taklif va tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Anjuman doirasida so'zga chiqqan ma'ruzachilar xorij davlatlarida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni amaliyotga joriy etishdagi tajribasi va ushu sohadagi istiqbolli loyihalari haqida nutq so'zlandi.

Shu jumladan, sun'iy intellektni eng ko'p etika qoidalari buzilishi mumkin bo'lgan soha tarmoqlari haqida alohida fikr va mulohazalar bildirdi. Tadbir yakunida ishtirokchilar bilan o'zaro savol-javob tashkil qilinib, bugungi kunda mamlakatimizda turli soha tarmoqlarini raqamlashtirish hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda etika qoidalariiga doir taklif va tavsiyalar umumlashtirildi.⁵ Ba'zilar AI tizimlari hech qachon axloqiy agent bo'lmaydi, deb ta'kidladilar.

Ular hech qachon chinakam axloqiy qarorlar qabul qilmaydilar, chunki ularda ong, iroda erkinligi, axloqiy his-tuyg'ular yoki vijdon yo'q. ⁵ Biroq, bu dalil ikkita muhim fikrni ajrata olmaydi. Birinchisi, axloqiy jihatdan to'g'ri harakatni amalga oshirish va uni maqbul axloqiy tamoyilga murojaat qilish orqali tushuntira olishdir. Ikkinchisi harakat uchun ma'naviy javobgarlikka tortiladi. To'g'ri, insonni o'z qilmishi uchun ma'naviy javobgarlikka tortish uchun asosan qasd va iroda erkinligi zarur. Darhaqiqat, mashinaning bunday fazilatlarga ega ekanligini aniqlash qiyin bo'ladi. Biroq, axloqiy ikkilanishda axloqiy jihatdan to'g'ri harakatni amalga oshirish va uni oqlash uchun na qasd, na iroda kerak. Mashina shunchaki idrok etilgan axloqiy jihatdan to'g'ri harakatga mos keladigan tarzda harakat qilishi va etakchi axloqiy tamoyilga murojaat qilish orqali o'z harakatini oqilonalashtirishi kerak.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonda Sun'iy intellekt etikasi kengashini bir necha sabablarga ko'ra tashkil etish zarurdir. Sun'iy intellekt etikasi kengashi (AI Ethics Board) sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi va qo'llanilishi bilan bog'liq etika muammolarni hal qilish uchun zarur. Ushbu kengash orqali biz hozirda mavjud bo'lgan muammolarni hal etishimiz mumkin. Bu muammolar; etika me'yorlarini belgilash va o'rnatish, xavfsizlik va maxfiylikni ta'minlash, adolat va inklyuzivlikni ta'minlash, jamoatchilik bilan aloqalar, tadqiqot va tahlillarni muntazam olib borish. Ushbu muammolarni hal etish orqali biz shaxsiy ma'lumotlarni xavfsizligi va maxfiyligiga erishishimiz mumkin. Jamiyatda adolat va tenglikni targ'ib qilish orqali tabaqalanish va shaxslar o'rtaсидаги тенгизликни бартароф этиш mumkin.

Jamoatchilik fikri bilan muntazam ravishda qiziqish va takliflarni muhokama etib, ma'qul bo'lganlarini tadbiq etish mumkin. Shuningdek yangi yaratilgan texnologiyalar ustida tadqiqotlar olib borish va uning oqibatida yuzaga keluvchi xatarlarni tahlil etishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasining 17.02.2021 yildagi PQ-4996-sonli "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yuzasidan sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga va texnologik bilimga ega kadrlarni o'qitish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga qo'shimcha ravishda Milliy sun'iy intellekt etikasi kengashini tashkil etishni taklif qilaman.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalari vazirligi. Rasmiy sahifasi: <https://digital.uz/news/view/2015/>

Ushbu kengashni tuzish orqali sun'iy intellektni rivojlantirish jarayonini yanada tez va samarali eng asosiysi sun'iy intellektni ishonchli qilishga erishish mumkin.

REFERENCES

1. Pardayeva, D., Niyazov, F., & Xushboqov, I. (2023). Sun'iy intellekt tarixi, rivojlanish bosqichlari hamda insonlar hayotidagi o'rni. *Ekonomika i sotsium*, 3(106)-2.
2. Yusupbekov, N. R. (2015). *Boshqarishning intellektual tizimlari va qaror qabul qilish*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.
3. Nazarov, X. N. (2019). *Robotlar va robototexnik tizimlar: Darslik*. Toshkent: MASHHUR PRESS.
4. Kurfess, T. (2005). *Robotics and automation handbook*. CRC Press LLC.
5. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalari vazirligi. sahifasi: <https://digital.uz/news/view/2015/>